

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Farg'ona shahrining geokimyoviy landshaftlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari	117
Sh.Q.Yuldasheva	
Aqliy mehnat paytida qondagi qand miqdorini turli yoshdagi odamlarda o'zgarishi.....	122
Z.A.Jabbarov, G.R.Atoyeva, M.H.Husniddinova	
Tuproqlarning kimyoviy ifloslanish natijasida biologik xossalarning o'zgarishi	127
X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov	
<i>Cynara scolymus</i> L. O'simligidan ajratib olingan endofit zamburug'lar ekstraktlarining saraton hujayralariga qarshi biologik faolliklari	133
S.Israyiljanov, J.T.Mamasaidov, H.O.Adulboqiyeva	
Og'ir metallarning o'simlik, hayvonlar va odam organizmiga fiziologik ta'sirini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili	138
M.K.Juliyev, L.A.Gafurova, M.D.Xolmurodova, B.E.Abdikairov	
Markaziy Osiyoda tuproq eroziyasi bo'yicha 1993-2022-yillar oralig'ida Scopus ma'lumotlar bazasida nashr etilgan maqolalar tahlili	143
X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov	
Analysis of macro and micro elements and water-soluble vitamins of the plant <i>Cynara scolymus</i> L.....	149
S.O.Madumarova, M.Sh.Raximov, M.J.Madumarov, A.A.Tokoev	
Farg'ona vodiysi Cladocera (<i>Crustacea: Branchiopoda</i>) lari ro'yxati.....	157
Z.A.Jabbarov, T.Abdraxmanov, O.N.Imomov, J.J.Abdukarimov	
Tuproq sifati indikatorlari va ularni qo'llanilishi.....	166
M.A.Tog'ayeva, Sh.A.Samatova	
Qashqadaryo viloyati aholisi iste'mol qilayotgan yumshoq bug'doy navlari tarkibidagi temir elementi miqdori.....	176
M.A.Davidov	
Tabiiy sharoitda <i>Mogoltavia sewerzowii</i> (<i>Regel</i>) korovin antekologik xususiyatlari	181
X.N.Raximov, G.T.Djalilova	
Qo'llanilgan mineral va organik o'g'it me'yorlarini tuproqlarni agrokimyoviy xossalari ta'siri	186
<hr/>	
M.R.Qoriyev	
Global iqlim isishi sharoitida mevali daraxtlar vegetatsiyasidagi o'zgarishlar	191
O.N.Nasirov	
Mustaqillikni dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi	196
R.A.Ikromov	
Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda milliy qadriyatlarning roli.....	200
S.Nishonova	
Maqollar paremiologik birlik sifatida	205
Sh.A.Tadjibaeva	
Rahbar ayol imidji tushunchasi va uni shakllantirishning psixologik xususiyatlari	208
S.S.Jabborova	
Yangi O'zbekistonda barpo etishda ma'naviy salohiyatdan foydalanish istiqbollari.....	213
E.U.Gulzoda, A.Z.Rashidov	
Ijodiy faoliyat uchun, o'quv mashg'ulotlarining o'ziga xos uslubiy chizmasiga egaligi, ijodkorlarning eksperimental ishiga katalizator bo'lib xizmat qilishi omillari.....	219
K.M.Nilufar	
Turli tarixiy kontekstlarda intellektual madaniyat masalasi.....	222
T.Quyliyev	
Global ekologik muammolar va ularning oldini olishda xalqaro institutlarning roli	227
B.M.Qandov	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda sog'lom mafkuralarning roli	233
Z.A.Akbarova, G.M.Nosirova	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga bilingvizmning ta'siri	238
F.F.Muydinov	
Tibbiy ta'limda mediata'lim asosida o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning ayrim jihatlari.....	242
Z.S.Paziljanova	



UO‘K: 371.322.015.3:811.111

**MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNING KOGNITIV RIVOJLANISHIGA
BILINGVIZMNING TA’SIRI**

ВЛИЯНИЕ НА ПОЗНАВАТЕЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКА

THE INFLUENCE OF COGNITIVE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

Akbarova Zuhra Akmaljonovna

Farg’ona davlat universiteti filologiya fanlari doktori, dotsent

Nosirova Gulira’no Muxammadolimovna

Farg’ona shahar 4-maktab o’qituvchisi

Annotatsiya

Maqola ikki til bilan til o’rganuvchilarning kognitiv rivojlanishiga bilingvizmning ta’sirini o’rganadi. Ushbu maqolada, bilingvizmning, ya’ni ikki tillilik muhitning, bolalarning psixik va nutqiy rivojlanishiga qanday ta’sir ko’rsatishi haqida ma’lumot beriladi. Maqola, ikki tillilik ta’lim muhitining bolalarning fikr mazmunini tushunish, nutqiy faoliyatini rivojlantirish, ijodkorlik qobiliyatini oshirish, va konseptual tafakkurni yaxshilashga qanday o’z ta’sirini ko’rsatishini yoritilgan. Til o’rganishda bilingvizmning yoshi va o’rganish mexanizmlari, ikki tilni o’zlashtirish jarayonining bosqichlari, va ikki tillilik muhitining bolalarning intellektual va hissiy rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Ular ko’plab tadqiqotchilar tomonidan o’rganilgan va bilingvizmning bolalarning kognitiv rivojlanishi va kommunikativ kompetensiyalariga qanday ta’sir ko’rsatishi haqida to’liq tasvirlangan.

Аннотация

В статье рассматривается влияние билингвизма на когнитивное развитие двуязычных изучающих язык. В данной статье представлена информация о том, как билингвизм, то есть двуязычная среда, влияет на психическое и речевое развитие детей. В статье описано, как двуязычная образовательная среда влияет на понимание детьми содержания мысли, развитие речи, творческих способностей и понятийного мышления. Анализируются возрастные и учебные механизмы билингвизма в изучении языка, этапы процесса овладения двумя языками, влияние билингвальной среды на интеллектуальное и эмоциональное развитие детей. Они были изучены многими исследователями и полностью описали, как билингвизм влияет на когнитивное развитие и коммуникативную компетентность детей.

Abstract

The article examines the effects of bilingualism on the cognitive development of bilingual language learners. This article provides information on how bilingualism, that is, a bilingual environment, affects the mental and speech development of children. The article describes how the bilingual educational environment affects children’s understanding of thought content, development of speech, creativity, and conceptual thinking. The age and learning mechanisms of bilingualism in language learning, the stages of the process of acquiring two languages, and the impact of a bilingual environment on children’s intellectual and emotional development are analyzed. They have been studied by many researchers and fully described how bilingualism affects children’s cognitive development and communicative competence.

Kalit so’zlar: Bilingvizm, ikki tillilik, kognitiv rivojlanish, nutqiy kompetensiya, til o’rganish, tarjima qobiliyati, lisoniy, kommunikativ kompetensiya.

Ключевые слова: Билингвизм, билингвизм, когнитивное развитие, речевая компетентность, изучение языка, переводческая способность, лингвистическая, коммуникативная компетентность.

Key words: Bilingualism, bilingualism, cognitive development, speech competence, language learning, translation ability, linguistic, communicative competence.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayoni ijtimoiy jamiyatda ikki yoki undan ortiq tilga bo’lgan ijtimoiy ehtiyojni oshirdi. Shu munosabat bilan ota-onalar til nafaqat zamonaviy inson tarbiyasining ko’rsatkichi, balki muvaffaqiyatga erishishning asosi ekanligi ikkinchi tilni erta o’rganishni dolzarb vazifaga aylantirdi deyish mumkin. Bilingvizmning maktabgacha ta’lim

yoshidagi bolalar kognitiv rivojlanishining shakllanishiga ta'siri muammolari bugungi kunga kelib yangi ma'no kasb etib bormoqda. Keng ma'noda qo'llaniladigan "bilingvizm" termini, ya'ni ikki tillilik etnik ong, psixologik, kognitiv rivojlanish va lisoniy, nutqiy kompetensiya kabi muhim masalar bilan bevosita bog'liqdir. M. M.B.Shamsiyevaning ta'kidlashicha, "Bilingvizm macalaci co'nggi yillapda ilmiy adabiyotlapda keng myhokama qilinmoqda va by holat typli davlatlap, ymyman, dynyoy miqyocida yning poli oshib bopayotganligidan dalolat bepadi. Bilingvizm hap tomonlama tadqiq etilayotgan fenomenlapdan bipi hicoblanib, komplekc ilmiy macalaga aylandi va yni tadqiq etishda typli fan metodlapi qo'llanmoqda" [M.B.Shamsiyeva].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ikki til muhitidagi 5-6 yoshli bolalar vaziyatga va kim bilan muloqot qilayotganiga qarab, ikki tilni navbatma-navbat almashtirish ko'nikmasini egallashning majburiy zaruriyati bolaning nafaqat psixik rivojlanishiga balki undagi nutqiy rivojlanishga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. "Bilingvizm" terminini birinchi marta qo'llagan U.Veynrex bu terminni lingvistik termin sifatida qo'llagan bo'lishiga qaramay, ko'plab tadqiqotchilar bu hodisani turli soha nuqtai nazaridan har tomonlama o'rganish zarur deb hisoblaydilar. Shu bois so'nggi o'n yillikda tilshunoslik, psixologiya va pedagogika sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ikki tillilik muammosiga bosqichma-bosqich aniqlik kiritib, uning xususiyatlarini har taraflama yoritishni taklif qilmoqdalar. Bilingvizm tushunchasining mazmuni va uni nutq ontogenezi shakllanishi bilan bog'liq masalalar zamonaviy psixolingvistikada ham dolzarbligicha qolmoqda.

Bolalarda nutq qobiliyati shakllanishining asosiy va dastlabki bosqichlarini aks ettirgan ko'plab tadqiqotlar L.S.Vigotskiy, N.A.Ribnikov, A.N.Gvozdev, A.A.Leontyev, D.B.Elkonin, K.Byuler, S.L.Rubinshteyn, S.N.Seytlin, A.M.Shaxnarovichning nomi bilan bog'liq. Ikkinchi tilni o'zlashtirish va ikki tillilik shakllanishining mexanizmlari to'g'risida F.P.Fillin, G.V.Kolshanskiy, N.V.Imedadze larning tadqiqotlarida keng o'rganilgan bo'lsa, "Ikkinchi (xopijiy) tilni o'zlashtirish va qo'llash ctpegiyaci (E.C. Kybpyakova, J. Lakan12 va b.), "opaliq til" hodicaci bilingval shaxcda paydo bo'ladigan bilimlap tizimi cifatida (U.F. Makki, M. Cigyan13 va b.) faol o'pganilgan" [M.B.Shamsiyeva 14-b].

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ikkinchi tilni o'zlashtirishi muammosining psixolingvistik va psixopedagogik ahamiyati shu yoshdagi bolalarning intellektual, hissiy va ahloqiy rivojlanishi bilan ham chambarchas bog'liqligida. Ikki tillilik muhitidan bexabar ota-onalar bilingval bolalari bilan avvaldan har ikkala tilda muloqot qilishni rejalashtirmasa, jadal rivojlanayotgan bilingvizm muhiti ta'sirida shakllanishni boshlagan bola nutqida turli xatolar paydo bo'la boshlaydi. Bilingval bola olamni ikki tomonlama ko'rishni boshlashi uning lisoniy ongida murakkab tuzilishga ega olam manzarasi shakllanayotganligini anglatadi.

Ikki tillilik muhitida bolaning ona tilini unutish jarayonining boshlanishi bu uning ikkinchi tilda ta'lim olishi bilan bog'liq, ammo ona tilidan foydalanish ikkinchi til faol bo'lgan jarayonda unchalik qulay bo'lmasligiga qaramay, bunday bolalar ongida shakllanishni boshlagan olam manzarasi va lisoniy ong ona tilida eshitgan ertak va hikoyalari sabab shu til bilan bog'liq milliy tasvirlarga va ko'plab belgilarga boy bo'lishi mumkin. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, "maktabgacha yoshda bolaning tabiiy ko'p madaniyatli muhit ta'siriga o'tishi orqali o'zlashtirilgan madaniyatlar uning ongida lisoniy va madaniy kodlarni tashkil qiladi. Hayotining birinchi kunidanoq o'zini ko'p madaniyatli muhitda ko'radigan bola erta bilingvizm, ya'ni ikki tillilik ta'siri ostida "dunyoni mutlaqo boshqacha ko'z bilan ko'rishini va unda o'ziga xos tarzda harakatlanishini ko'rsatmaydi". [Layonz Dj.272]. Ikki tilli muhitda bola nafaqat ikkita tilni, balki ikki xil madaniyatning madaniy kodlarini bir vaqtning o'zida ketma-ketlikda egallaydi. [S.N.Sokurova s.177].

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqotchilar ikki tillilikning tabiiy va ortirilgan sabablarini ikkita tilni til tashuvchisi darajasida bilish yoki bilingvizmni ko'plab tasniflarga ega, ammo asosiylardan biri tilni o'zlashtirish til egasining yoshi va o'rganish mexanizmlariga asoslangan deb hisoblaydilar. Shu asosga ko'ra ikki tillilik: erta va tabiiy turga ajratish mumkin. Agar bola tug'ilgandan boshlab ikki til muhiti mavjud bo'lsa, (masalan, turli sabablarga ko'ra xalqaro yoki emigrant oilalarda: birinchidan ota yoki onaning nutqi bir-biridan va oilada qo'llaniladigan til atrofdagilarning muloqotida qo'llaniladigan til bilan farqlanadi, ikkinchidan turli millatlarning davlat tili boshqa til sifatida faol bo'lgan hududlarda yashashi), bola yoshining keyingi davrlarida kech o'zlashtiriladigan ikkinchi til kichik yoshdagi

bolalarning ona tilini o'zlashtirish fonida (masalan, O'zbekistonda o'zbek bolalarining rus tilida ta'lim olib boruvchi maktabgacha ta'lim muassasasiga borishi) yuzaga keladi.

Bilingv bolalar yosh nuqtai nazaridan ham farqlanadi. "Ikkinchi tilni ko'ra erta yoki kech o'zlashtiriga ko'ra bilingv bolalar. Eng kichik yosh davridan ona tili va ikkinchi tilni bir vaqtning o'zida erta egallashni boshlagan bilingval bolalar" [Grosjean, 2010]. Tadqiqotchilar 3 yoshdan keyin ikkinchi tilni o'zlashtirishni boshlagan bolalarni oilada ona tilini o'zlashtirgan va kechroq, ya'ni bolalar bog'chasiga borgandan so'ng ikkinchi til muhiti ta'sirida o'zlashtira boshlaydi deb ta'kidlaydilar. Shuni ta'kidlash joizki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning 5-6 yosh davridan boshlab kognitiv rivojlanishi va ularda kommunikativ kompetensiyalarning o'sish darajasi lisoniy va nutqiy kompetensiyalar bilan bog'liq. Shu davrdan boshlab bola faol darajada kognitiv rivojlanishni boshlaydi. "Til kompetentligining pivojlanishida kognitiv va kommunikativ japyonlapning o'zapo aloqaci alohida ahamiyatga ega. Aqliy opepatsiyalapning kognitiv ctpategiyalapini shakllantipish bevocita myloqot malakalapida akc etmaydi, nytq etaplicha avtonom pivojlanadi". [M.B.Shamsiyeva 55b].

Bir vaqtning o'zida ona tili va ikkinchi tilni o'zlashtirish qancha vaqt davom etishi va 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan davrda bolalarning optimal til o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi haqida turli xil qarashlar mavjud. Treysi 3-5 yoshni ikki til tizimini sinxron va ketma-ket egallash chegarsi deb hisoblaydi. [Tracy R. 1996]. MakLaffinning ta'kidlashicha, bir vaqtning o'zida ikki tillilikni o'zlashtirishni bola uch yoshga yetgunga qadar boshlash lozim [McLaughlin, 1978]. Klyaynning fikriga ko'ra, ikkinchi tilni o'zlashtirish uchun optimal yosh 3-4 yosh [Klein W1984]. Ko'palb zamonaviy tadqiqotlar tadqiqotchilarning "ikki tillilik gipotezasi" ga moyilliklarini ko'rsatadi. Ularning ta'kidlashicha, 3-4 yoshli bolalar uchun bir yoki ikki tilni o'zlashtirish o'rtasida hech qanday farq kuzatilmaydi. Aynan shuning uchun ham tadqiqotchilar "ikki tillilik tizimi gipotezasi" ni ma'qullaydilar. [Genesee et al,2004].

Bilingvizm tadqiqiga doir olib borilayotgan tadqiqotlarda asosiy e'tibor bolalarning kognitiv rivojlanishiga til ko'nikmalarining ijobiy ta'sir ko'rsatadigan o'ziga xos omillarni topishga qaratadilar. Shunday omillardan biri bolalarning hissiy rivojlanishi bo'lib, bu jarayon bolalar nutqining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Natijada lisoniy shaxs va uning olam manzarasi ikki tillilik ta'siri ostida shakllanishni boshlaydi. Olam manzarasi tushunchasining o'zi V.Gumboldning tilning tafakkurga bog'liqligi va har bir o'ziga xos til tomonidan shartlanishi haqidagi g'oyasidan kelib chiqqan bo'lib, u o'ziga xos milliy tasnif tizimini o'z ichiga olgani holda so'zlovchilarning dunyoqarashini belgilaydi. Bu esa o'z navbatida lisoniy shaxs olam manzarasini shakllantiradi. [Alpatov 2005: 167].

Kichik yoshdagi bolalar olam manzarasi kattalarning olam manzarasidan ko'p jihatlari bilan farqlanadi. Bilingvizm muhitida o'sayotgan 4-5 yoshli bolalarning lisoniy ongi – bu bolalar tilining jismoniy va aqliy voqeliklarini aks ettiruvchi hamda voqelikni konsepsiyalashning maxsus usuli sifatida ham ta'riflanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ikkinchi tilni o'zlashtirish shu tilga tegishli madaniyatni egallash, kognitiv rivojlanish bilan parallel ravishda sodir bo'ladi va shuning uchun ham olamni til vositasida turkumlashdagi farqlar leksikografik amaliyotda o'z aksini topadi. Shu sababli bilingvizm tilshunos, pedagog va psixologlarning o'rganish obyekti hisoblanadi.

Ikki tillilik muhiti yoshidan qat'i nazar bolalar uchun har ikkala tilda mavjud faol so'zlarni tushinishda o'ziga yarasha qiyinchiliklarni tug'diradi. Bu esa o'z navbatida bolalarda ichki nutq bosqichida dekodlash jarayonining buzilishiga olib keladi. Leksik interferensiya doirasida bilingval bola lug'atining modelini yaratishda kodlar almashinuvi fenomeni alohida ahamiyatga ega. Ikki tilli bolalar nutqi uchun bu hol ham ijobiy ham salbiy deb hisoblash mumkin. Lisoniy ongda ma'lum bir tilga tegishli kodlarni almashtirish muayyan muloqot uslubi bilan bog'liq bo'lsa, bu holatni ijobiy hodisa deb baholash mumkin. Muloqot jarayonida leksik bo'shliqlarni to'ldirish usullaridan foydalanish so'zni bilmaslik natijasida kod almashtirilishi esa salbiy hodisa sifatida baholanishi mumkin.

XULOSA

Muloqot jarayonida bolalar asosiy jumalarning mazmuniga o'tishda qiyinchiliklarga duch kelishadi va fikr mazmunini tushinish, ichki nutq bosqichiga xos tayyorgarlik davrini voqealar ketma-ketligi tartibida bayon qilish imkoniga ega bo'lmaydilar. Uzuluksiz ikkinchi tilda olib boriladigan mashg'ulotlar bilan bog'liq holda, bolalarda nutqni idrok etishda sezilarli yaxshilanishi

ILMIY AXBOROT

kuzatiladi. Bilingval bolalarning nutqiy faoliyati monolingval bolalarning nutqiy faoliyati bilan farqlanadi. Ikki tillilik bolaning umumiy til ko'nikmalariga hamda tarjima qobiliyatining rivojlanishiga, uning fikrlash jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ikki tilli muhitning bolalar uchun afzalliklari kognitiv rivojlanishning quyidagi jihatlarida yaqqolroq ko'rinadi:

- bolalar diqqatini jamlash;
- og'zaki va o'ziga xos moslashuvchanlik;
- ijodkorlik qobiliyatining rivojlanishida.

Bundan tashqari ikki tillilik 5-6 yoshli bolalarda qo'shimcha lisoniy resurslarning paydo bo'lishiga, bilingval bola tafakkurining konseptual jihatdan boyib borishiga yordam beradi. Ikki tillilik tizimini ta'lim muassasalariga kiritish O'zbekiston ta'lim paradigmasi uchun yangi o'ziga xos tendensiya deyish mumkin. Shu boisdan hozirga qadar erta ikki tillilik va ikki tilli ta'limning maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv qobiliyatlari, ijodkorligi, lisoniy shaxs sifatida shakllanishi va lisoniy, nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'siri to'g'risida alohida nuqtai nazar yo'q deyish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. М.Б. Шамсиева. Билингвал болалар нутқининг психолінгвістик тадқиқи: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD) дисс – Тошкент, 2022– 12,14,55-б.
2. Лайонз Дж. Язык и культура: вводный курс. М.: Едиториал УРСС, 2004. 320 с.
3. С.Н. Сокурова с.177 Адыгейский государственный университет. Формирование билингвизма в онтогенезе (на примере Адыгейско-русского двуязычия). www.gramota.net/materials/2/2016/7-2/50.html
4. Grosjean F. (2010) Bilingual Life and Reality. Cambridge, Mass.: Harvard University Press. [М.Б. Шамсиева 55б].
5. Tracy R. (1996) Von Ganzen und seinen Teilen: Überlegungen zum doppelten. Erstspracherwerb. *Sprache & Kognition*. Heft 1-2.
6. McLaughlin B. (1978) Second language acquisition in childhood. N.Y.: Lawrence Erlbaum Associates.
7. Klein W. (1984) Zweitspracherwerb. Königstein; Ts.: Athenaeum Verlag.
8. Genesee F., Paradis J., Crago M. (2004) Dual language development and disorders: A handbook on bilingualism and second language learning. Baltimore: Paul H. Brookes.
9. Алпатов 2005 Алпатов В. М. История лингвистических учений: учебное пособие. М.: Языки славянской культуры, 2005. 167 с.